

FRIGIYA QALPOQCHASINING TARIXI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7796855>

Panjiyev Jahongir Shavkat o'g'li

jahongirpanjiyev11@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti tarix yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Biz bu maqolada uzoq va qiziqarli tarixga ega bo'lgan Frigiya qalpoqchasi haqida batafsil ma'lumot olamiz. Aynan Frigiya qalpoqchasi (gorro frigio) nomi bilan mashhur bu qalpoq Rimdagi qullar qo'zg'olonida, Buyuk Fransuz inqilobida, Janubiy Amerikada XIX asrning birinchi choragidagi davlatlarning mustaqillik uchun kurash jarayonida, Amerika inqilobi davrida erkinlik ramzi bo'lib o'rtaga chiqdi. Ushbu qalpoqcha hozirgi jahon mamlakatlarining davlat ramzlarida ham aks etganiga guvoh bo'lamiz. Qalpoqcha tasviri tushirilgan o'yinchoqlarning olimpiya o'yinlarida rekord darajada sotilishini ham ko'ramiz. Bu maqolada qalpoqcha tarixi keng miqyosda o'rganilgan.

Abstract.

In this article, we will learn more about the Phrygian cap, which has a long and interesting history. This cap, known as the Phrygian cap (gorro frigio), appeared as a symbol of freedom during the slave revolt in Rome, during the Great French Revolution, during the struggle for independence of the countries in the first quarter of the 19th century in South America, and during the American Revolution. We can see that this cap is also reflected in the state symbols of the countries of the world today. We'll also see record sales of toys featuring the cap at the Olympics. This article explores the history of the cap on a large scale

Kalit so'zlar.

Frigiya qalpoqchasi, erkinlik ramzi, qullar ozodligi, qalpoqning haykallarda tasvirlanishi, rasmiy davlat ramzi;

Key words.

Phrygian cap, symbol of freedom, freedom of slaves, depicting the cap in sculptures, the official state a toy with the image of a cap on it;

Frigiya qalpoqchasining nomi milloddan avvalgi VII asr oxirida Frigiyaning oxirgi shohi Midas davrida qadimgi Kichik Osiyo - hozirgi Turkiyada hududidagi xalq Frigiya nomidan kelib chiqqan. Dastlab qadimda bu turdagi bosh kiyimlarni

faqat Frigiyalik cho'ponlar kiyib yurishgan. Frigiya qalpog'i yoki ozodlik qalpog'i - bu qadimgi davrlarda Sharqiy Yevropa va Kichik Osiyoning ba'zi xalqlari, jumladan Frigiya, Dakiya, Dalmatiya va Bolqon xalqlari bilan bog'liq bo'lgan yumshoq egri, uchli konus shaklidagi bosh kiyim. Dumaloq yoki uchli bo'lib, kigiz, mo'yna yoki jundan qilingan. Bu qalpoqning ko'rinishi baland qalpoq shaklida bo'lgan, tepasi oldinga tushib turgan, ko'pincha quloqlarida ikkita qopqoq bilan jihozlangan(1-rasmga qarang).

Dastlab qalpoqchalar hayvon terisining son qismidan tayyorlangan, tor tepa tomonidan bog'langan yoki tikilgan. Keyinchalik shunga o'xshash bosh kiyimlarni kimmeriyalar va skiflar kiyishgan. Kimmeriyalar va skiflarning kiyinishi bir-biriga o'xshash bo'lgan. Ularning jangchi askarlari ham gorro frigio kiyganligini ko'rishimiz mumkin(2-rasm). Jangchilar kiygan gorror frigio odatdagi gorro frigidan tepa tomonining balandligi va dubulg'asimon ekanligi bilan farqlanadi(2-rasm). Skiflar davlatida aholi frigiya qalpoqchasi kiyishganligini qadimgi davrlarda yunon hunarmandlari tomonidan Skifiyada sotish uchun tayyorlangan mashxur oltin skif grivnasida ko'rish mumkin. Vaqt o'tishi bilan bunaqa bosh kiyim kiygan forslar va parfiyaliklar bu tasvirni sharqonalikning belgisi deb hisoblashgan. Qadimgi Ravennaning nasroniy mozaikalarida biz Frigiya qalpoqlarini kiygan sehrganlarni ko'ramiz. Gretsiya va Rimda bunday shlyapani odatda hunarmandlar va boshqa erkin oddiy odamlar kiyishgan, ya'ni qul erkinlikka ega bo'lsa, bunday qalpoq kiyish huquqini olgan. Bendis ya'ni Frakiyaning oy va ov ma'budasi ham Frigiya qalpog'ini kiygan holda tasvirlangan. Bu qalpoqchani nafaqat Frigiyaliklar balki Kichik Osiyodagi yunonlar ham kiyishgan. Aynan mana shu yunonlar orqali Rimga ham gorro frigio kirib borgan. Yana bir qancha frigiya qalpoqchasi Kelajakda yunon tilida so'zlashmaydigan xalqlar(klassik ma'noda „varvarlar“)ga nisbatan qo'llanila boshlandi. Frigiyaliklarning keng tarqalgan xalqlaridan eng mashhurlari troyanliklar va boshqa g'arbiy Anadolu xalqlari bo'lib, ular yunoncha idrokda frigiyaliklar bilan sinonim bo'lgan va ularning qahramonlari Paris, Eney va Ganimed muntazam ravishda Frigiya qalpoqchasini kiygan holda tasvirlangan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib (ellinistik davrning boshi) Frigiya qalpoqchasi Kibela¹ning turmush o'rtog'i bo'lgan frigiyalik Attis² bilan bog'liq bo'lib, uning bosh qismi haykali hozirgi paytgacha saqlangan(3-rasm).. Taxminan bir vaqtning o'zida qalpoq afsonaviy shoh Midas, qahramonlardan Paris, Eney va boshqa frigiyaliklarni yunon vazalari va haykallarida tasvirlanganligini ko'rish mumkin.

Frigiya qalpoqchasi Rim davrida qullarni ozod qilishning ramzi edi. Ular ozod bo'lganlarida, ularga erkinlik belgisi sifatida qalpoqcha kiyishga ruxsat berilgan.

1. „Kibela" – frigiyaliklar ma'budasi. Tabiatning ishlab chiqaruvchi kuchlari timsoli hisoblangan hamda "Buyuk ona" yoki "Ma'budlar onasi" deb ulug'langan

2. „Attis" - bu frig va yunon mifologiyasida Kibelaning turmush o'rtog'i

Brut boshchiligidagi respublika tarafdorlari Yuliy Serazni o'ldirdi va respublikachilarni namoyishga chaqirdi. Shunda patriitsylar bilan birga namoyishga chiqqan Rimdagi qullar ozodlikni ham talab qilib chiqishdi. Qo'zg'alon butun Rimni egalladi. Respublika tarafdorlari qullarni qo'llab-quvvatladi. Shu sababli, Yuliy Sezarning qotillari Rimni ozod qilganliklarini tasdiqlash uchun Frigiya qalpoqchasini tayoqda ko'tarishdi. Rimning Libertas³ ma'budasi ham odatda qoziq bilan tasvirlangan. Aslida tayoq yoki qoziqqa pileus nomli bosh kiyim ilib yurishgan. Oradan vaqt o'tib pileus va gorro frigio almashtirib yuborilgan. Shundan so'ng gorro frigio tayoq yoki qoziqqa ilingan holda tasvirlanadi. Rim ikonografiyasi qayta tiklanganidan keyingi dastlabki ikki asrda ozodlik ramzi sifatida eng ko'p qo'llaniladigan bosh kiyimga aylandi. Trayan ustunida Trayanning daklar bilan bo'lgan epik urushlari (mil. 101-102 va 105-106) xotirasiga bag'lishlab ishlangan Frigiya qalpoqchasi Trayan asirligidagi daklar boshlarini bezatadi.

Buyuk Fransuz inqilobi. Qirol Lyudovik XVI 1789-yil 5-mayda Bosh shtatlar (parlament) majlisini chaqirdi. 3 toifa deputatlari o'zlarini 9-iyulda Ta'sis majlisi deb e'lon qildilar. Majlisni tarqatib yuborish maqsadida qilingan urinishlar xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. 14-iyulda Bastiliya turmasiga hujum boshlandi. Bu Buyuk fransuz inqilobining boshlanishi edi. Davlatda respublika o'rnatish kayfiyati yuzaga keldi. Respublika tarafdorlari o'zlariga ozodlik talab qilayotgandek chiqishdi. Quyi tabaqa vakillari hunarmandlar, savdogarlar, oddiy dehqonlar qo'zg'alonga qo'shilishdi. Gorro frigio ilgari monarxiya gerblarining toj qo'yilgan joyida qo'llanila boshlandi. Respublikachilar va ozodlik talab qilib qozg'alonga qo'shilgan xalq gorro frigioni o'z ramzlarining tojidek tasvirley boshlashdi. Shunday qilib u respublika hukumatining ramzi sifatida tanildi. 1790-yillarning boshlariga kelib frigiya qalpoqchasi muntazam foydalanila boshlangangan. Fransuz inqilobi davrida Frigiya qalpoqchasi erkinlik va ozodlikka intilish ramzi bo'lib kelgan. Frigiya qalpoqchasi baxtliroq taqdirga ega. Fransuz Marianna kabi milliy timsollar odatda frigiya qalpoqchasini kiygan holda tasvirlangan. Rassomlarning asari ostida oddiy qizlar ham, mashhur go'zallar ham Mariannaga aylanishdi. Shahar va qishloqlarning barcha shahar hokimiyatlarida uning haykal holatidagi qiyofasi o'rnatilgan. Ko'plab qadimiy haykallarda (ayniqsa Parijda) qalpoq nusxasi topilgan. Inqilob davomida yakobinlar qalpoqdan to'laqonli ramz

sifatida foydalanishgan. Hozirgi kunga qadar ushbu qalpoqcha Fransiya Respublikasining davlat razmlaridan biri hisoblanadi.

3. „Libertas“ - bu Qadimgi Rimning erkinlik timsoli hisoblangan ma'buda. Nyu-Yorkdagi ozodlik haykali ham shu ma'budadan ilhomlanib yaratilgan va uning nomi ham Libertasdir.

XVIII asr oxirida Britaniyadan mustaqillik uchun Amerika inqilobiy urush boshlayotgan edi. Amerikaliklar ingliz nashrlarida erkinlik va ozodlik ramzlarini sifatida aks ettirilgan tasvirlarni, elementlar va belgilarni ko'chirishdi va nusxalashdi. Amerika mustaqillikka erishgandan so'ng bu ramzlarni o'zlariga qabul qilib olishdi. Shular orasida frigiya qalpoqchasi ham bor edi. 1854 yilda haykaltaroshlar Amerika Qo'shma Shtatlari Kapitoliysi uchun ramziy maketlarni tayyorlayotganda, vazir Jefferson Devis Ozodlik haykaliga Frigiya qalpoqchasini qo'shishni man qiladi va "Amerika erkinligi asl erkinlikdir, ozod qilingan qulning erkinligi emas" deydi, shu asosda Frigiya qalpog'ini Ozodlik haykaliga qo'ymaslik kerakligini ta'kidlaydi. Amerikada 1793-yildan 1947-yilgacha zarb qilingan "Yuruvchi Ozodlik" yarim dollarida(tanga shaklida) qalpoqcha tasvirlangan va erkinlik ma'nosini anglatgan. Frigiya qalpoqchasi G'arbiy Virjiniya bayrog'ida, Aydaxo, Nyu-Jersi, Nyu-York, Ayova, Shimoliy Karolina va Virjiniya shtatlari muhrining orqa tomonida tasvirlangan. Eng asosiysi esa Amerika Qo'shma Shtatlari Senatining muhrida tasvirlanganligidir(4-rasm).

Argentina gerbida frigiya qalpoqchasining yorqin misolini ko'rishimiz mumkin. Qalqonning markaziy maydonining yuqori choragida yorqin qizil Frigiya qalpoqchasi joylashgan va u Argentina Respublikasining mustaqilligi va o'rnatilishi bilan qo'lga kiritilgan erkinlikni anglatadi(5-rasm). Ushbu gerbda gorro frigio qisqa nayzaga ilingan, bu nayza pike (bu ham erkinlik ramzi) deb ataladi. Ispaniya va Portugaliya mustamlakachiligidan ozod bo'la boshlagan Lotin Amerikasi mamlakatlari Argentina misolida ozodlik ramzini qabul qilishdi. Kolumbiya, Nikaragua, Gaiti, Kuba va Salvador kabi Lotin Amerikasi davlatlarining gerblarida erkinlik ramzi frigiya qalpoqchasi aks ettirilgan.

Kolumbiya gerbi 1834-yilda qabul qilingan. Ushbu gerbda boshqa hech bir davlat gerbida uchramaydigan anor tasviri borligi ham hayratlanarli jihat hisoblanadi. Gerb markazidagi qizil qalpoq Frigiya qalpoqchasidan boshqa narsa emas(6-rasm). Hatto o'sha paytda ham Yevropaga intilish ularning idealarini qabul qilish kuchli bo'lgan. Kolumbiya gerbidagi bu ramz mustaqillik va ozodlik uchun kurashni anglatadi.

Salvador gerbi 1912-yildan beri hozirgi ko‘rinishida qo‘llanilmoqda. Uning markazi dengizdan beshta vulqon ko‘tarilgan uchburchakdan iborat. Ular Markaziy Amerikaning Birlashgan Mintaqasiga kiruvchi beshta davlatni ramziy ifoda qiladi(7-rasm). Vulqonlar tepasida, oltin quyosh oldida pike(tayoqcha) va qizil Frigiya qalpoqchasi joylashgan. Ushbu gerbni yaratilishiga Argentina gerbi katta rol o‘ynagan. Ya’ni undan gerbning ko‘p qismlarini olishgan.

Boliviya mamlakatining davlat gerbida frigiya qalpoqchasining tasvirini uchratamiz(8-rasm). Bu gerbda qalpoqcha qalqonning chap tomonida o‘ng tomondagi bolg‘aga xoslab joylashtirilgan.

Nikaragua gerbining markaziy elementi uchburchak bo‘lib, u barcha fuqarolarning tengligini anglatadi(9-rasm). Kamalak an'anaviy tinchlik ramzi, Frigiya qalpog‘i esa erkinlik ramzi hisoblanadi. Bu davlat ham Markaziy Amerika davlatlari ittifoqining asoschilaridan biri bo‘lgan

Kuba Respublikasining gerbi uch qismga bo‘lingan qalqon shaklida bo‘lib Meksika ko‘rfaziga kirishni qulflaydigan kalit mavjud. Gerbning tepasida yuqori ideallarga erishish istagi ramzi bo‘lgan qizil Frigiya qalpoqchasi bilan toj kiygan(10-rasm). Qalpoqchanning o‘zi esa ozodlik ramzi sifatida qaraladi.

Ushbu maqolada biz qadimgi davrlarda cho‘ponlar bosh kiyimi hisoblangan frigiya qalpoqchasi haqida ma'lumotlarni taqdim etdik. Ushbu qalpoqcha uzoq evolutsiya bilan muhim bir ramzga aylandi. Ko‘plab davlatlarning ajralmas va unutilmas erkinlik qalqoniga aylandi.



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



5-rasm



6-rasm



7-rasm



8-rasm



9-rasm



10-rasm

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Семёнов Л. П. Фригийские мотивы в древней ингушской культуре. Известия Чечено-Ингушского научно-исследовательского института истории, языка и литературы. – Грозный, 1959. – Т. 1. – С. 197 – 219.
2. Ernst Gombrich. The Dream of Reason: Symbols of the French Revolution, in: E.H.Gombrich. The Use of Images: Studies in the Social Function of Art and Visual Communication. Phaidon Press, 1999, 162 – 183.
3. Фригийская шапка. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – СПб., 1890 – 1907
4. Андреева Р. П. Колпак фригийский // Энциклопедия моды. – СПб.: Издательство «Литера», 1997. – С. 204.

INTERNET SAYTLARI:

1. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Coat_of_arms_of_Argentina
2. <https://ru.alegsaonline.com/art/76624>